

FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR

ZIYOVUDDIN TOSHOV

tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan

**“HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA FONETIKA
VA FONOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman
materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
NEMIS FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**FONETIKA VA FONOLOGIYA FANLARINING TARG‘IBOTCHISI,
FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR
ZIYOVUDDIN TOSHOV
tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan**

**“HOZIRGI GLOBALASHUV DAVRIDA
FONETIKA VA FONOLOGIYANING
DOLZARB MUAMMOLARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman

20-oktyabr 2023-yil

Buxoro – 2023

Hozirgi globallashuv davrida fonetika va fonologiyaning dolzarb muammolari [Матн] D.H.Karimova - Buxoro: "Sadriiddin Salim Buxoriy" Durдона, 2023. - 400 b.

Mazkur to‘plamda Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi Toshov Ziyovuddin Badriiddinovichning 80 yillik hayoti va 57 yillik ilmiy faoliyati hamda 100 dan ortiq mamlakatimiz va xorijiy filolog-olimlari, olimning hamkasblari, shogirdlari, do‘stlari va qarindoshlari tomonidan bildirgan fikr-mulohazalari va dil izhorlari bayon qilingan.

To‘plam pedagogik va ilm-fan xodimlari, yosh ilmiy izlanuvchilar va boshqa kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Professor S.S.Saidov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

f.f.f.d. (PhD) D.H. Karimova

f.f.f.d. (PhD) M.M. Maxmudova

Taqrizchilar:

f.f.d. (DSC), dotsent Z.I.Rasulov

f.f.d. (DSc), professor D.H.Quvvatova

f.f.f.d. (PhD), dotsent Y.B. Ro‘ziyev

AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING YARATILISH TARIXI VA O‘ZBEKCHA TARJIMALARI XUSUSIDA

Karimova Dilafro‘z Halimovna

**BuxDU, Nemis filologiyasi kafedrası
katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)**

Axmadova Xusnora Narzillo qizi,

BuxDU, Xorijiy tillar fakulteti 11.1.NEM 22 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aka-uka Grimmlar ertaklarining tarixi, ertak syujeti, dunyoning boshqa tillariga tarjimasi, shuningdek, ertaklar tarjimasi tarixi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *ertak syujeti, allegorik obraz, bilvosita tarjima, xalq uslubi, tematik doira, bolalar auditoriyasi.*

Ertaklar haqida gap ketganida, beixtiyor xayolimizga aka-uka Grimm ertaklari keladi. Aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar nemis xalqining eng sevimli ertakchi-yozuvchilari bo‘lib, ular yaratgan ertak butun jahon kitobxonlarning e‘tiboriga tushgan. Bunda, albatta, ularning turli tillarga tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Ular yaratgan ertaklarning birinchi to‘plami “Bolalar va oila” (“Kinder und Familie”) nomi bilan 1812-yilda, 1815-yilda ikkinchisi, 1822-yilda esa uchinchi kitoblari nashr qilingan. Bu kitoblar aka-uka Grimmlarning nomini dunyoga tanitdi va tez orada jahonning ko‘pgina boshqa tillariga ham tarjima qilina boshlandi.

Grimmlar chop yettirgan to‘plamning birinchi jildiga 86, ikkinchi jildiga 70 ta ertak kiritildi. Kitob jami 7 marta nashr yetildi. 1857-yili chop etilgan so‘nggi nashrdan 200 dan ortiq ertak va rivoyat joy olgan bo‘lib, ularda mualliflar ko‘proq afsonaviy, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarni umumlashtirishga harakat qilgan. Har bir ertakda saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik kabi fazilatlar ulug‘lanib, qo‘rqoqlik, yolg‘onchilik va dangasalik qattiq qoralanadi. Aka-uka Grimm ertaklarining o‘ziga xos jihati shundaki, ularning asosiy qahramonlari shoh va shahzodalar yemas, balki kambag‘al, beva-bechoralarning farzandlari, oddiy cho‘pon yoki askar yigitlar edi. Ertaklarda ularning ibratomuz ishlari barchaga namuna qilib ko‘rsatiladi. Ammo kitobning ilk nashri ko‘plab tanqidlarga uchradi. Ertaklar bolalar uchun yozilgan bo‘lsa-da, ular kichik yoshdagi o‘quvchilarga to‘g‘ri kelmasligi aytili. Chunki ertaklarning asl talqinida birmuncha shafqasiz va qo‘rqinchli sahnalar mavjud edi. Masalan, ertak qahramoni Rapunzelning shahzodadan homilador bo‘lib qolishi, Oppog‘oyga dushmanlik qiladigan yovuz malika aslida qizning haqiqiy onasi bo‘lib chiqishi va boshqalar. Ayrim ertaklarda esa ota o‘z qizining qo‘llarini kesadigan joylar ham bo‘lgan. Bunday holatlar hatto XIX asrda ham shafqancizlik hisoblanardi. Shu bois keyinchalik ertaklarning syujeti o‘zgartirilib, bizning davrimizgacha ularning ancha yumshoq talqinlari yetib keldi.

Bugun dunyo aholisining yarmidan ko‘pi aka-uka Grimmlarni faqat ertaknavislar sifatida taniydi.

Bugungi kunda jahonning biror go‘shasi yo‘qki aka-uka Grimmlar ertagi bormagan bo‘lsa, birorta madaniy til yo‘qki, ular tarjima qilinmagan bo‘lsa. Ular jahonning boshqa tillariga tarjima qilinganligidek, bizning ona tilimiz – o‘zbek tiliga ham o‘girilgan. Mualliflarning ertaklari bilan o‘zbek xalqi ham o‘tgan asrning 30-yillari oxirlariga kelib yaqindan tanisha boshlagan. Aniqrog‘i, nemis xalq ertaklariga bo‘lgan qiziqish O‘zbekistonda o‘tgan asrning birinchi choragidan kuchaygan. Ular 30-yillarning o‘rtalaridan boshlab tarjima qilina boshlangan va qayta-qayta nashr qilingan [1], hozir ham nashr etilmoqda.

Aka-ukalarning ertaklarining ilk nashrlari ham o‘tgan asrning 30-yillari o‘rtalaridan boshlangan. 1937-yilda ular ilk bor o‘zbek tilida chop bo‘lgan. Bunda ularning tarjimasi va nashri bilvosita (ruscha tarjimasidan) amalga oshirilganligi kuzatiladi. Keyingi yillarda esa ularning tarjimasi bevosita nemis tilidan o‘zbek tiliga amalga oshirilgani kishini quvontiradi.

1937-yilda “Yosh kuch” jurnalining qator sonlarida Aka-uka Grimmlarning ertaklaridan namunalar e’lon qilib borilgan. Masalan, jurnalning o’sha yilgi 8-sonida aka-ukalarning “Bo’ri bilan yetti echki”, 9-sonida “Bremen muzikachilari”, 1938-yilning 11-12-sonlarida esa “Belyankaxon va Rozaxon” singari ertaklari bolalar e’tiboriga havola qilingan. 1938-yilda aka-uka Grimmlarning “Botir tikuvchi” ertagi ilk marta alohida kitobcha holida F.Rasulov tarjimasida chop etilgan. 1938 yilda aka-uka Grimmlarning ertaklari ilk marta alohida to’plam holida chop etilgan. 45 sahifalik albom ko’rinishidagi bu kitobning tarkibida 8 ta ertak keltirilgan. Bular: “Bremen muzikasilari”, “Mushuk blan sichqan”, “Quyvon bilan tpiratkan”, “Ahmaq Gans”, “Aqlli Elza”, “Bir xurmasa shavla”, “Bori blan yetti echki”, “Tulki blan g’azlar” kabi ertaklardir. “Bremen mashshoqlari”, “Quyvon bilan tipratikan”, “Somon, cho’g’ va loviya”, “Bir xumcha shovla”, “Bo’ron kampir”, “Yetti qarg’a”, “Yalqov Geys”, “Mitti odamchalar”, “Oqoyim va Guloyim”, “Uch baxtiyor”, “Qo’li gul qizcha”, “Botir tikuvchi”, “Tulki bilan g’ozlar”, “Uch aka-uka” kabi ertaklardir. Shundan so’ng 1939-40-yillarda aka-ukalarning ertaklari bolalar va yoshlar adabiyoti nashriyoti tomonidan “Oltin g’oz” nomi bilan alohida kitobcha shaklida chop etilgan. 16 sahifadan iborat bu ertakning tarjimasini Vahob Ro’zmatov amalga oshirgan.

Grimmlar o’z adabiy ertaklari orqali nemis xalqining o’zligini tanitishga, xalqining dilidagi orzu-istaklarini topib, sodda, xalqchil uslubda, yuqori badiiy shaklda ifodalashga muvaffaq bo’ldilar. Grimmlar yaratgan ertaklar nihoyatda rang-barang bo’lib, ularning tematik doirasi keng, mazmuni inson faoliyati, hayvonlar va jonivorlar, tabiiy hodisalarning juda ko’p tomonlarini qamrab olgan. Aka-ukalar yaratgan ertaklarning qahramonlari ko’pincha podshohlar, shaxzodalar, zodagonlar, oliy tabaqadagi kimsalar emas, balki odiiy xalq ichidan chiqqan dehqon, kosib-hunarmandlar, kambag’alning o’g’il-qizlari. Ular o’zlarining ziyakligi, uddaburonligi, mehnatsevarligi, hunarmandligi, sinchkovligi, hushyorligi, insonparvarligi kabi xislatlari bilan xarakterlidir. Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarni g’oyaviy-mavzuiy jihatdan uch guruhga ajratish mumkin:

a) Afsonaviy ertaklar: “Der tapfere Schneider” (“Botir tikuvchi”), “Das Schneewittchen” (“Qorqiz”), „Die goldene Gans“ (“Oltin g’oz”); b) Hayvonlar va jonivorlar haqidagi ertaklar: „Der Hase und der Igel“ (“Quyvon bilan tipratikan”), „Der Wolf und der Fuchs“ (“Bo’ri va tulki”), „Die Bremer Stadtmusikanten“ (“Bremen shahri musiqachilari”); v) Hayotiy ertaklar: „Die kluge Else“ (“Aqlli Elza”), „Der faule Heinz“ (“Yalqov Hayns”), „Frau Holle“ (“Bo’ron kampir”).

Afsonaviy ertaklarning syujeti, asosan xalq orasida qadimdan yashab kelayotgan ertaklardan olingan, pardozlab qayta ishlangan. Hayvonlar, jonivorlar haqidagi ertaklar masallardagi an’anaviy uslubga juda yaqin bo’lib, ularning ko’pida allegorik obrazlarning hatti-harakatlari orqali hayotdagi ayrim qusurlar ustidan kulinadi. Hayotiy ertaklarning syujeti esa ko’pincha turmush hodisalaridan olingan bo’lib, ularning qahramonlari ham hayotda mavjud, deyarli har kuni duch kelinadigan u yoki bu shaxsni ko’z o’ngimizda gavdalaniradi.

Xullas, nemis ertakchilari aka-uka Grimmlarning ijod namunalari turli yillarda bir necha bilvosita (ruscha tarjimasidan) va bevosita (original nemis tilidan) o’zbek tiliga tarjima qilingan. Aka-uka Grimmlarning yertaklari ta’siri juda katta yedi va yuqorida aytib o’tilgan bir qator qiyinchiliklarga qaramasdan, keyinchalik yosh o’quvchilar uchun tahrir qilingan nashr (50 yertaklari, rassom Lyudvig Yemil Grimm tomonidan tasvirlangan), bu ajoyib hikoyalar bolalar auditoriyasining sevgisiga sazovor bo’ldi.

ADABIYOTLAR:

1. Bori blan yetti ecki. – Yos kuc. – 1937. – № 8. – B.15-17; Bremen muzikachilari. – Yos kuc. – 1937. – № 9. – B.1- 4; Beljankaxon va Rozaxon. – Yos kuc. – 1938. – № 11-12. – B.37-39; Aka-uka Grimm. Ertaklar. A.Rahmatov tarjimasida. – Taskent: Davlat adabijati nasriyati, 1938. – 45 b.; Aka-uka Grimm. Altin Qaz. V. Rozmatov tarjimasida. – Taskent: Balalar va jaslar adabijati nashriyati, 1939-40. – B.16.

2. Bühler, Charlotte / Bilz, Josephine: Das Märchen und die Phantasie des Kindes. Mit einer Einführung herausgegeben von Hildegard Hetzer. 3. Auflage. München: Johann Ambrusius Barth Verlag 1971, 23.

N.M. Nazarova. “KONSEPT” TUSHUNCHASIDA LINGVISTIK MA’LUMOTLAR.....	157
F. S. Nasimova. TERMIN VA UNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	159
K.H. Saitova. THE ROLE OF TRANSLATION MISTAKE IN TEACHING INTERPRETATION	161
M.C. Мирханова. АНГЛИЙСКИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ ..	163
E.B. Jumayev, G.X. Nurullayeva. NEMIS TILIDA SHAXS IFODASI	164
N.T. Tabisxanov. Die Adjektive im Werk „Kabale und Liebe“ von F.Schiller	166
Xaitova Gulshan Baxadirovna, Kamolova Sitora. O’ZLASHTIRMA GAP VA UNING O’ZGA GAP DOIRASIDA TUTGAN O’RNI.....	168
G.K. Хожаметова. Построение предложения в английском языке.....	171
G.K. Хожаметова. Методико-лингвистические принципы анализа фразеологической деривации в английском языке	173
M.A.Кучиев. ИЛОВАЛИ ЭЛЕМЕНТЛАР СИФАТИДА ҚЎЛЛАНГАН ФРАЗЕОЛОГИЗМ ВА БАДИИЙ ТАСВИР ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС СТИЛИСТИК ВАЗИФАЛАРИ	175
Badalov Feruz Nuriddinovich. NEMIS TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING ONLAYN AXBOROT NASHRLARIDAGI TUTGAN O’RNI.....	176
Xolova Shahnoza Davronovna. FRAZEMA VA UNING TADQIQ ETILISH TARIXI.....	178
Abdrimova D., Ismailov Yu.N. Stilistik figuralar matnning tarkibiy qismi sifatida	179
3-sho’ba. Zamonaviy tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik: an’ana va innovatsiyalar.....	182
Зоҳиджон Садиков. АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИ ОЛМОН ТИЛИДА	182
Д.З.Ражабов. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА ПОЭТИК НУТҚ ИФОДАСИ	185
Adizova Obodon Istamovna. FOLKLORSHUNOSLIKNING JANRIY TARKIBI VA TIZIMI XUSUSIDA.....	188
Adizova Obodon Istamovna. L’ÉTUDE SYSTÉMATIQUE DES MOEURS ET DES COUTUMES ...	190
Karimova Dilafro’z Halimovna, Axmadova Xusnora Narzillo qizi. AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING YARATILISH TARIXI VA O’ZBEKCHA TARJIMALARI XUSUSIDA.....	194
Maxmudova Muattar Maxsatilloevna, Xayitova Mavjuda. Y.V.GYOTE “G’ARBU SHARQ” DEVONINING MAQSUD SHAYXZODA VA S.S.BUXORIY TARJIMALARIDAGI FARQLAR VA MUSHTARAKLIKLAR	196
Hayitova Mavjuda. S.S.BUXORIY IJODIDA SHARQU G’ARB MAVZUSI VA “MAG’RIBU MASHRIQ” DEVONI TARJIMASI HAQIDA	199
Babayev Otabek. ÜBERSETZUNGEN UND AUSGABEN VON JALOLIDDIN RUMIS WERKEN .	202
Babayev Otabek Abdikarimovich, Zokirov Jamshid Kholmat Ugli. The history of interpreting	204
Jumayev Akmal Axmatovich. QALDIRG’OCH OBRAZI O’ZBEK VA NEMIS XALQ ERTAK VA AFSONALARIDA	207
Jabbarova Maloxat Hamdamovna. ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ПИСАТЕЛЯ НА ИЗОБРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА	209
Babayev Otabek, Anna Angelika Janning, Anne Charlotte Blasel. FUNKTIONEN UND ROLLE DER LITERARISCHEN ÜBERSETZUNG IM 21. JAHRHUNDERT	212
Xudoyev Samandar Samatovich. O’ZBEK LATIFALARINING TARJIMA EVOLYUTSIYASI.....	218
Bozorova Muxabbat Abduraxmonovna. HAYNRIX HAYNE SHE’RLARI O’ZBEKCHA TARJIMASIDA SHARQONA OBRAZ VA MOTIVLAR IFODASI	220
Бозорова Мухаббат Абдурахмановна. ВЫРАЖЕНИЕ ВОСТОЧНЫХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ СТИХОТВОРЕНИЙ ГЕНРИХА ХЕЙНА	222
Tolibjanov Baxromjon Maxmudxanovich. MARK TVEN YUMORISTIK ASARLARI TARJIMASIDA MUROJAAT SHAKLLARINING BERILISHI	224
Jumayeva Shahlo Shokirovna. MILLIY KOLORIT TERMINI, UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O’RGANILISHI VA UNING QAMROV DOIRASI.....	225
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Bafoyev Mirfayz Baxshilloevich. MADANIYATLARARO MULOQOTDA TARJIMANING O’RNI	227
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Ashirova Rayhon Anvar qizi. ERTAKLAR VA BADIY ASARLARNI TARJIMA QILISH MAHORATI	229
Xurshida Hasanova. FANTAZIYA JANRIDAGI ASARLARINING ILMIY VA NAZARIY QIRRALARI	231
Xamdamov Oybek Abdulxayevich. “O’TKAN KUNLAR” ROMANI TARJIMALARI TADQIQI.....	233